

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 8 Jild 4  
**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 8 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулв Жамолддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА) .....	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ .....	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ .....	26-30
<i>Rustamov Ixomidin</i> “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI) .....	31-34
<i>Normo‘minov Aziz</i> O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI .....	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR SAMARASI .....	40-44
<i>Xamidova Shoir Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI .....	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА .....	52-54

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALONIYATINI OSHIRISHGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i> TASHQI SAVDO SALONIYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI .....	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ .....	69-81
<i>Baqoeva Dilfuza</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIV BORILISHI, MOHIYATI VA YO‘NALISHLARI .....	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	87-93

<i>Donayev Sheroli Burxonovich</i> DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT STRATEGIYASINING AHAMIYATI .....	94-101
<i>Кахаров Жасур Абулқосимович</i> ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	102-109
<i>Рахмонов Шухрат Шавкатович</i> ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....	110-117
<i>Sherov Alisher Bakberganovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI .....	118-129
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna</i> MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIIY- AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI .....	130-135
<i>Muhamedov Asror</i> G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR .....	136-145
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY AHAMIYATI .....	146-151
<i>Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich</i> INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH ZARURIYATI .....	152-156
<i>Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich</i> AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI .....	157-162
<i>Шоназаров Жамшид Шухратович</i> ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ .....	163-168
<i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI .....	169-174
<i>Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li</i> MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR SIFATIDA QARASH .....	175-179
<i>Muxtorova Tutixon</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	180-186
<i>Rahmonova Mavluda Abdusamadovna</i> ABDURAUFI FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR QARASHLARI TAHLILI .....	187-194

<i>Pirnazarov Nurnazar</i> TANA, RUX VA MA'NAVİYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING FALSAFIY TAHLILI.....	195-201
<i>Ismailov Dilshod Baxriddinovich</i> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVİY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV .....	202-209
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna</i> RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI TALQINI .....	210-216
<i>Bozorbekov Ahmadbek</i> O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI .....	217-230
<i>Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich</i> ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA MANBALARIDAN FOYDALANISH .....	231-236
<i>O'tebaeva Dilbar</i> TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR .....	237-242
<i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i> EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) .....	243-247
<i>Kadirova Zaynab Bakoyevna</i> INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI .....	248-252
<i>Allaberganova Nilufar Matnazar qizi</i> QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI .....	253-256
<i>Nabiyeva Rushana Jamol qizi</i> OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA .....	257-262
<i>To'rayeva Iroda Sheramatovna</i> FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA SPETSIFIKASI .....	263-268
<i>Qodirova Munisa Erkinjon qizi</i> BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	269-272
<i>G'aniyeva Nozanin G'ayratovna</i> MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI .....	273-277
<i>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna</i> TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI .....	278-284
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY IFODA MUKAMMALLIGI .....	285-292
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI .....	293-298

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR***Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH

JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI ..... 299-306

*Узакова Гўзал Шариповна*

ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА

ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ ..... 307-325

*Пулатова Нодирахон Собиржонова*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ

ПРАВ ЧЕЛОВЕКА ..... 326-332

*Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich*

MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI

HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 333-341

*Абдурахманова Нодирахон*

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В

ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ..... 342-345

*Vokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li*

TA'LIM OLIH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI ..... 346-356

*Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li*

SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI ..... 357-368

*Утапов Фурқат*

ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ

МАҚОМИ ..... 369-374

*Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li*

XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH

TENDENSIYASI ..... 375-381

*Назарова Марҳабо*

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В

УЗБЕКИСТАНЕ ..... 382-386

*Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич*

ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ

МАСАЛАЛАРИ ..... 387-400

*Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи*

ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ

МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406

*Abdikhakimov Islombek*

LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A

COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS ..... 407-412

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI***Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*

TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK

YONDASHUVLARNING ROLI ..... 413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI .....	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i> HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI .....	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i> NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR .....	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i> O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада Ботировна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА .....	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i> O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i> YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i> SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i> MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH.....	462-467

**Received:** 30 July 2024  
**Accepted:** 5 August 2024  
**Published:** 15 August 2024

*Article / Original Paper*

## **THE CURRENT STATE OF THE STUDY OF HAFIZ KHORAZMI'S DIDACTIC VIEWS**

**Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna**

Independent researcher of Urganch State Pedagogical Institute

**Abstract.** In this article, the current state of studying the didactic views of Hafiz Khorezmi has been studied and researched, and in this regard, the educational and significance of his creative work, the recognition of the great human feelings formed in the historical development of the peoples of the East in a deep literary and deep spirit have been highlighted.

**Key words.** Hafiz Khorezmi, literature, didactic views, human feeling, education.

## **HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI**

**Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna**

Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Hofiz Xorazmiy didaktik qarashlarini o'rganishning hozirgi holati o'rganilgan, tadqiq qilingan hamda bu borada uning serqirra ijodining tarbiyaviy, ahamiyatlari, sharq xalqlari tarixiy rivojlanishida shakllangan buyuk insoniy tuyg'ular chuqur adabiy-teran ruhda e'tirof etilganligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Hofiz xorazmiy, adabiyot, didaktik qarashlar, insoniy tuyg'u, tarbiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N58>

**Kirish.** XXI asr pedagogikasida didaktika sohasi ta'lim va ma'rifat berish nazariyasi sifatida shakllanib, jadal rivojlanishda davom etmoqda. Bugungi global integratsiya jarayonlari o'quvchilarning murakkab muammolarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirish kabi masalalar ta'limning dolzarb vazifalari sifatida ko'rinmoqda. Badiiy-adabiyot hamda ijodiy pedagogika integratsiyalashgan holda o'quvchilarning an'anaviy tushunchalarni zamonaviy bilimlar orqali yengib o'tish va o'zlarining tanqidiy fikrlashlarini sharqona hayotiy munosabatlarda qo'llash zaruriyati shakllandi. Shunisi muhimki, bu orqali o'quvchilar muammoning kelib chiqishini aniqlash qobiliyati, turli muqobil variantlarni baholash, oqibatlarini ko'rib chiqish hamda ijodiy va amaliy yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Biroq, badiiy-adabiyotning davrga xos ijtimoiy-falsafiy tushunchalari ta'lim faoliyatida ijodiy pedagogikani amalga oshirishda o'qituvchilar va o'quvchilar duch keladigan murakkabliklarning mavjudligi ko'zga tashlanadi. Ya'ni, o'rta asrlar adabiy muhitining devonafislari ijodining ta'limning barcha bosqichlari doirasida ijodiy pedagogikaga

integratsiyalashishi oqibatlarini o'quvchilarning o'quv tajribasini boyitish potentsialiga ega bo'lgan ta'lim yondashuvidagi paradigmaning o'zgarishini ta'minlaydi. Bu integratsiyalashishi "vizualizatsiya", oddiy tajribalar yoki interfaol texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu esa o'quvchilarga adabiyot fanining "Hofiz Xorazmiy va uning ijodiy merosi"ga oid materiallarida mavjud bo'lgan va ular uchun mavhum bo'lgan tushunchalarni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Bu borada yurtimizda ta'limning turli bosqichlari uchun yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalar aks etgan XIV-XV asrlarda sharq adabiy muhiti haqida fikr yuritib, Hofiz Xorazmiy shaxsi va ijodi haqida o'ziga xos ilmiy-nazariy qarashlarni turli jihatlardan tadqiq qilamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada tadqiqotning tahlil, sintez, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, induktiv, deduktiv, anketa-so'rovi va abstrakt fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

Hofiz Xorazmiy ijodini tadqiq qilish ishlari yangi o'zbek adabiyoti davri erishgan yutuqlar ta'sirida, ya'ni zamonaviy jahon adabiyotiga tutash holda rivojlanmoqda. Natijada, jahon adabiyotining ilg'or tamoyillari o'zbek adabiyotiga xos tadqiqot uslublarida namoyon bo'lmoqda. Ushbu xususiyatlar XX asrning so'nggi choragidan boshlangan milliy tafakkur rivojida yangilanish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda sodir bo'ldi. Bu o'rinda ustoz adabiyotshunos Ibrohim Haqqul fikrlari bizga asos bo'la oladi [1].


Aytish joizki, Hofiz Xorazmiy qo'lyozma devoniga doir ilmiy izlanishlar istiqloq davrida yanada kengroq namoyon bo'la boshladi. Hofiz Xorazmiyni insonni ijtimoiy hayotning bir namoyandasi sifatida emas, aniqrog'i o'ziga xos bo'lgan ma'naviy olam egasi sifatida kashf etishga e'tibor kuchaydi. Bunda tadqiqotchi adabiyotshunos M.B.Sulaymanov izlanishlarida Hofiz Xorazmiyning ijodiga qarash va yangi-yangi adabiy tasvir usullarini o'rganish boshlanganligini ko'ramiz [2]. M.B.Sulaymanov Hofiz Xorazmiy ijodidagi insonning botiniy olami, uning ijtimoiy, balki ruhiy olami, tiriklik mohiyati o'z ifodasini topgan obrazlarga boyligi uning tadqiqotlarda asoslab berishga erishilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, "Ishq" masalasi atrofida oshiq orzu-havaslarini emas, shuningdek xalqning erkinlik va farovonlik, madaniy taraqqiyot, tenglik va hamjihatlik to'g'risidagi azaliy orzularini amalga oshirish kabi masalalar ham ilgari suriladi. Ushbu jihatlar turkiyalik adabiyotshunos Ogah Sirri tadqiqotida ham o'z tasdig'ini topadi.

Shuningdek, Hofiz Xorazmiy hayoti va ijodi Turkiyada ham o'rganilgan va o'rganilmoqda. Turkiyalik professor Rejep Toparli tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar so'zimizni dalillaydi. 1994-yildagi "Harazm Hofiz devonidan saylanmalar" kitobi [3] eng muhim jihatlaridan biri, shoir lirik merosining to'liq holda qisqartirilmay chop etilganligidir. Zero, 1981-yilda o'zbek tilida ikkita kitob holda chop etilgan nashrga qasidalar, oltita forscha g'azal, ayrim ruboiy va qit'alar, Ibrohim Sulton vafotiga bag'ishlangan marsiya kirmay qolgan edi.

Hofiz devoning oshiq va ilohiy ishq borasida umumiy tadqiq qilinadigan xususiyatlari oddiy insonning oshiqlik borasida yuksak (hukmdor singari) ulug'lanishini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, turk adabiyotshunosi Ahat Ustunerning "Xorezmli Hâfiz Divanında Türk Adı" [4] nomli maqolasida keltirgan fikrlari buni tasdiqlaydi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Hofiz Xorazmiyning didaktik qarashlari shuni ifodalaydiki, XIV-XV asrlarda yashab, o'zbek tilida ijod qilgan Hofiz Xorazmiy ijodiy salohiyati va badiiy so'zni chuqur his qilishi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu jihatdan biz sohibdevon

ijodkorlarning devonlaridagi gʻazallar ulushining qiyosiy jadval shaklida shakllantirdik (1-rasm).



**1-rasm. Sohibdevon ijodkorlarning devonlari janrlaridagi ulushining qiyosiy tahlili<sup>1</sup>**

Hofiz devoni ushbu rasmda keltirilgan boshqa ko'pgina sohibdevon ijodkorlar devonidagi kabi faqat epik she'riy asar bo'lmagan, unda xilma-xil janrlar ham muhim o'rin tutadi. Syujet rivojida voqealarning borishi tasvirlovchi mantiqiy rivojga mos keltirishida ham ko'rinadi. Zero, uning devonida ishq-muhabbat tasnifida insoniyatning go'zal tabiiy tuyg'usi, sevgi bilan bog'liq bo'lgan oshiq-ma'shuqning nozik qarashlari, tarbiyaviy ahamiyati yuksak ulug'langan ulkan orzular ostida sevinch, sog'inish, sadoqat, vafo, do'stlik, judolik va boshqa tushunchalarini kuylagan buyuk shoirligi yana bir bor o'z tasdig'ini topgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 2023-2024-o'quv yili uchun tasdiqlangan adabiyot fani darsliklarida 5-11-sinf o'quvchilariga 80 nafarga yaqin o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodi, shuningdek, turli adabiy janrlar, badiiy tasvir vositalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ulardagi har bir mavzu oxirida keltirilgan savol va topshiriqlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Ammo, ularga bo'lgan yoshlarning qiziqishlarni yanada kengaytirish lozim. Jumladan, turli yoshlar guruhida ishtirokchilar o'rtasida o'tkazilgan anonim so'rov natijalariga ko'ra, o'quvchilarning aksariyati Hofiz Xorazmiy shaxsi va uning ijodi haqida yetarli ma'lumotga ega emasligi aniqlandi (1-jadval).

**1-jadval**

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.

### Turli yoshlar guruhida ishtirokchilar o'rtasida o'tkazilgan anonim so'rov natijalari haqida ma'lumot<sup>1</sup>

Ishtirokchilarning yosh guruhlari	Jami ishtirokchi	Savol: Siz Hofiz Xorazmiy shaxsi va uning ijodi haqida bilasizmi?			
		Bilaman (+)	%	Bilmayman (-)	%
5-9 yoshlar	10	0	0	10	100
10-14 yoshlar	15	0	0	15	100
15-19 yoshlar	20	1	5	19	95
20-24 yoshlar	20	2	10	18	90
25-35 yoshlar	15	0	0	15	100
36-50 yoshlar	10	0	0	10	100
51 yosh va undan kattalar	5	1	20	4	80
<b>Jami:</b>	<b>95</b>	<b>4</b>	<b>4,2</b>	<b>91</b>	<b>95,8</b>

Ushbu 1-jadval natijalariga ko'ra, so'rovnomada jami 95 nafar ishtirokchi qatnashdi. Ulardan 4 nafari (4,2 %) Hofiz Xorazmiy shaxsi va uning ijodi haqida ma'lumotga ega ekanligini ma'lum qilishsa-da, qolgan 91 nafari (95,8 %) ma'lumotga ega emasligini va bilishni xohlashini aytib o'tganlar.

Mazkur tadqiqotlar asosida Hofiz Xorazmiy shaxsi va uning ijodi haqida adabiyot darsliklarida va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi boshqaruvdagi ta'lim tizimida ham tadqiqotlar olib borish rejalashtirilgan. Ushbu tadqiqotlarning ko'pchiligi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yosh pedagoglarga pedagogika fanlari orqali o'rgatilishi lozim. Chunki, K.Hoshimov va S.Ochil tomonidan chop etilgan "O'zbek pedagogikasi antologiyasi" [5] nomli kitobida, A.Zununovning "O'zbek pedagogikasi tarixi" [6] nomli o'quv qo'llanmasida, O.Hasanboyevaning "Pedagogika tarixidan xrestomatiya" [7] nomli o'quv qo'llanmasida M.X.Toxtaxodjayevevaning "Pedagogika" nomli darsligida [8], E.R.Yuzlikayevevaning "Теория и практика общей педагогики" nomli darsligida [9], B.X.Hodjayevning "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" [10] nomli darsligida, O'.J.Yo'ldoshevning "Umumiy pedagogika" nomli kitobi [11], M.X.Umarovning "Теория и истории педагогики" [12] nomli darsligida, X.I.Ibragimov va Sh.A.Abdullayevalarning "История педагогики и образовани" [13] darslik va o'quv qo'llanmalarida ham Hofiz Xorazmiy shaxsi va uning devonidan keltirilgan sharqona ta'lim-tarbiya mazmuniga oid fikrlar yetarlicha yoritilmagan.

Fikrimizcha, oliy ta'lim darslik va o'quv qo'llanmalar tahlili davomida shu narsa aniq bo'ldiki, XIV-XV asrlarda Sharq adabiy muhiti merosni o'rganish borasida yetarli tadqiqotlar yaratilmagan. Mazkur davrga tegishli ayrim shaxslarga to'xtalib o'tilgan. Jumladan, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Haydar Xorazmiy, Mavlono Lutfiy, Atoiy, Alisher Navoiy va boshqa ijodidagi falsafiy qarashlariga munosabat bildirilgan. Vaholanki, Hofiz Xorazmiy satrlari insonning ilohiy-ma'naviy kamoloti, unda tarbiya mazmunning kengligi, falsafiy teranligi, insonparvarlik ruhi, yuksak badiiyati bilan ajralib tursa-da tilga olinmagan. Hofiz Xorazmiy

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.

devoni chuqur tadqiq qilinsa, unda ilgari surilgan oliyjanob insoniy tuyg'ular, tarbiya haqidagi teran falsafiy fikrlar chuqur, mantiqiy va asosli bayon etilganligiga hamda turli sharqona pedagogik qarashlar ilgari surilganligiga guvoh bo'lamiz.

**Xulosa.** Hofiz Xorazmiy shaxsi va ijodi oid mavzuning dastliklarga kiritilishining dolzarbligi va ahamiyati shundaki, Hofiz Xorazmiy shaxsi, ijodi, undagi oshiq va ma'shuq obrazlari mavzusi doirasida ilmiy yangiliklar sifatida dastavval Hofiz Xorazmiy shaxsi Alisher Navoiygacha bo'lgan davrda turkiy tilda ijod etgan, turkiy she'riyatda g'azal janrini yuksak darajasiga ko'targan, falsafiy qarashlari bilan ezgulikni targ'ib etuvchi zabardast ijodkorligi, ishq-muhabbatni qalamga olgan sohibdevon, ulkan iste'dod egasi, badiiy-estetik dunyoqarash sohibi, o'z zamonasining ma'rifatparvar kishisi, devonda obrazlar talqinidagi yondashuvi Sharq mumtoz adabiyoti an'anasining yanada takomillashgan, mavjud obrazlarning ifoda miqyosini kengaytirgan hamda asosiy oshiq-ma'shuq va ikkinchi darajali obrazlar talqinidagi yondashuvini sof ishqning falsafiy-gumanizm darajasida tasvirga ijod qalami asosida keltirgan san'atkorligi isbotlangan.

Hozirgi kunda Turkiy davlatlar tashkiloti, deb nomlanuvchi xalqaro tuzilma Jahon miqyosida turkiy tilli xalqlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, turli sohalarida o'zaro hamkorlikni kengaytirayotgan bir paytda Hofiz Xorazmiy ijodining kiritilishi xalqlar adabiyoti va tarixini o'rganish ishtiyoqini va iftixorini oshiradi.

Ikkinchi Renessansning yuzaga kelishi bilan arab, fors, turk adabiyoti, adabiy-tarixiy yondashuvlar, yangi ilmiy bilimlar va diniy-tasavvuf qarashlari tufayli yangi o'zanga burildi. Natijada, turkiy xalqlar madaniy hayotida ham o'ziga xos yangilanish yuz berdi va bu davrda Atoyi, Gadoyi, Mavlono Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Yusuf Amiriy, Husayniy, Shayboniyxon, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari o'zbek mumtoz adabiyotining ko'zga ko'ringan qator iste'dodli so'z san'atkorlari maydonga chiqdi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Ҳаққулов И. Ғазал гулшани. - Т.: Фан, 1991. - 34-40 б.
2. Сулаймонов М.Ю. Ҳофиз Хоразмиё ва ўзбек лирик шеърятининг ривожы: Филол. фанлары номзоды ... дисс. - Тошкент, 1996. - 160 б.
3. Recipe T. Harezmlî Hafîz Divan'ından Seçmeler. - Ankara: 1994, Kültür Bakanlıđı Yayınları.
4. Üstüner A. Hârezmlî Hâfîz Divanında Türk Adı. // Turkish Studies - International Periodical For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 9/6 Spring, 2014, Ankara-Turkey. - 1107-1116 p.
5. Ҳошимов К., Очилов С., Ўзбек педагогикаси антологияси: Икки жилдлик. Ж. 1. - Т.: Ўқитувчи, 1995. - 464 б.
6. Зунуннов А., Ўзбек педагогикаси тарихи: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. - Т.: Ўқитувчи, 1997. - 272 б.
7. Ҳасанбоева О., Педагогика тарихидан хрестоматия: Педагогика олий билимгоҳлари талабалари учун ўқув қўлл. - Т.: Ўқитувчи, 1992. - 208 б.
8. Toxtaxodjayeva M.X., Nishonova S., Hasanboyev J., Usmonboyeva M., Madiyarova S., Qoldibekova A., Nishonova N., Sayidahmedov N., Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik. - Т.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - 400 b.

9. Юзликаева Э.Р., Мадьярова С.А., Янбарисова Э.Э., Морхова И.В. Теория и практика общей педагогики: Учебник для направления бакалавриата область образования 110000 – Педагогика. – Т., - 2012 – 388 б.
10. Xodjayev V.X., Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - Т.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
11. Yo'ldoshev O'.J., Umumiy pedagogika. – Т.: «Fan va texnologiya», - 2017, - 376 b.
12. Умарова М.Х., Теория и истории педагогики: учебное пособие для направления бакалавриата область образования 5110900 — Педагогика и психология/М. Умарова. Министерством высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан. — Т.: ИПТД имени Чулпана, - 2018, - 372 с.
13. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А., История педагогики и образования. Учебник для магистрантов. – Т.: Fan va texnologiya, 2008.- 240 с.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 8 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).